

Date: 17th April-2026

XIVA XONLIGIDA QISHLOQ XO‘JALIGI (1512-1920)

Miryoqubov Mirjalol

University of Business and Science universiteti ijtimoiy-fanlar va raqamli texnologiyalar fakulteti tarix yo‘nalishi 22-02- guruh-4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola Xiva xonligi (1512-1920) davrida qishloq xo‘jaligining rivojlanish tarixi, uning iqtisodiy tuzilmasi va ahamiyatini kompleks o‘rganadi. Xonlik iqtisodiyotining agrar xarakterga egaligi, yer egaligi shakllari, soliq tizimi, sug‘orish infratuzilmasi hamda dehqonlar va chorvadorlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati yoritiladi. Muhammad Rahimxon I va Rahimxon II davrlarida amalga oshirilgan islohotlarning qishloq xo‘jaligiga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, sug‘orish tizimi, agrar munosabatlar, soliq siyosati, yer egaligi.

Kirish

Xiva xonligi XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyo hududida shakllangan mustaqil davlatlardan biri bo‘lib, o‘ziga xos siyosiy va iqtisodiy tizimga ega edi. Xonlik iqtisodiyoti, asosan, agrar munosabatlarga tayanar, dehqonchilik va chorvachilik asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari sifatida yetakchi o‘rinni egallagan. Xiva xonligining Amudaryo vohasida joylashgani, sug‘oriladigan yerlarning mavjudligi va karvon yo‘llariga yaqinligi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Xonlik hududida o‘zlashtirilgan yerlarning 93 foizi Janubiy Xorazmga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, ushbu mintaqada dehqonchilik mutlaqo sun‘iy sug‘orishga asoslanganligi bilan boshqa o‘rta asrlar Sharqiy davlatlaridan ajralib turgan. Sug‘oriladigan yerlar tarmoq ko‘rinishidagi ariq, kanal va daryolardan iborat murakkab tizim orqali suv bilan ta‘minlangan.

I. Yer egaligi tizimi va agrar munosabatlar

1.1. Yer egaligining shakllari

Xiva xonligida agrar tuzumning huquqiy va ijtimoiy asoslarini tashkil etuvchi yer egaligi tizimi murakkab va qatlamli tuzilishga ega bo‘lgan. Garchi barcha yerlar davlat, ya’ni xon mulki deb hisoblangan bo‘lsa-da, amalda yer egaligining turli shakllari mavjud bo‘lgan: davlat yerlari, xususiy yerlari va vaqf yerlari.

Davlat yerlarining asosiy qismini hukmdor tomonidan zabt etilgan yoki o‘zlashtirilgan hududlar tashkil qilgan. Ushbu yerlar "zamini maita" (egasiz yer), "bekor yer" (bo‘sh turgan yer), "boz yer" (yangi o‘zlashtirilayotgan yer) kabi nomlar bilan manbalarda tilga olinadi. Yerlar, odatda, davlat tomonidan ijaraga berilgan bo‘lib, dehqonlar undan foydalanish evaziga yer solig‘i to‘laganlar. Dehqonlar o‘z faoliyatini ushbu yerlar asosida tashkil etgan bo‘lib, ular "yarimchilar" deb atalgan — bu atama hosilning yarmini davlatga yoki yer egasiga topshirish majburiyatiga asoslangan edi.



Date: 17th April-2026

Vaqf yerlariga diniy muassasalarga, masjid, madrasa, qabriston, xonaqohlarga qarashli yer-mulklar kirgan. Bu mulklar diniy muassasalarga xon, amaldorlar va ayrim shaxslar tomonidan vaqf qilib berilgan. Bunday yerlardan kelgan daromad diniy muassasalar ehtiyoji uchun sarf etilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr o'rtalarida xonlikdagi vaqf mulkining umumiy hajmi 170-175 ming tanobni tashkil etgan .

Xususiy yerlar (mulk) esa alohida mulkdorlarga tegishli bo'lgan. Xonlikda yer egaligining asosan 3 turi — amlok (amir boshchiligidagi mulkdorlar guruhi ixtiyorida yerlar), mulk (xususiy yer egalarga qarashli) va vaqf yerlari mavjud bo'lgan .

1.2. Ijaradorlik munosabatlari

Xiva xonligidagi kam yerli va umuman yersiz, ot-ulovsiz dehqonlar ko'pchilikni tashkil etgan bo'lib, ular davlat, mulk hamda vaqf yerlarida ijaraga ishlaganlar. Ijaradorlar ijaraga olgan yer miqdoriga qarab davlatga soliq to'laganlar. Ular kimning yerida xizmat qilishlariga qarab bevatan, koranda va vaqfkor degan qatlamlarga bo'lingan. Davlat yerlarini ijaraga olgan yersiz va kamquvvat dehqonlar bevatanlar, mulk yerlaridagi ijarakorlar koranda, vaqf yerlari ijarakorlari esa vaqfkor deb atalgan .

Ijaraga yer olgan dehqonlar "yarimchi" deb atalgan, chunki ular olingan hosil yarmini ijara haqqi qilib to'lagan . Yersiz yoki kam yerli ijarachilar, ya'ni korandalar, bevatan dehqonlar, vaqf yerlari foydalanuvchilari ham alohida toifani tashkil etgan. Ularning soliq majburiyati ijaraga olingan yer maydoniga muvofiq belgilanib, masalan, 15 tanob yerni ijaraga olgan dehqon 34 tanga, 10 tanob uchun 22 tanga, 6-5 tanobgacha bo'lgan yerlar uchun esa 13 tanga to'lashlari belgilangan edi .

II. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari

2.1. Dehqonchilik

Dehqonchilik va chorvachilik Xiva xonligi iqtisodiy hayotining asoslaridan hisoblangan. Dehqonchilikda Amudaryo quyi oqimidan olingan ko'plab kanallar va ariqlar muhim o'rin egallagan. Ta'kidlash lozimki, Xiva xonligida suv manbalarining yetarli bo'lishiga qaramasdan, dehqonchilik taraqqiyoti qo'shni Buxoro xonligidagidek yuksak darajada rivoj topmagan edi .

Ekinlarni yetishtirish. Xonlikda donli ekinlardan bug'doy yetishtirish nisbatan keng rivojlangan bo'lib, bug'doy Pitnakdan Shohabozgacha bo'lgan hududlarda ayniqsa ko'p ekilgan. Sug'oriladigan yerlarga bug'doyning saranchi navi ko'p yetishtirilgan. Bug'doy yig'ib olingan dalalarga qovun, tarvuz, mosh, jo'xori kabi ekinlar ekilgan .

Tuproqning tabiiy hosildorligi past bo'lganligi sababli, u yerga ishlov berishda maxsus agrar texnologiyalar talab etilgan. Dehqonlar yerlarni eniga va bo'yiga ko'p martalab — ba'zida 5, 10, hattoki 20 marotaba haydab chiqqanlar. Bunday mehnat talab qiluvchi agrotexnika vositalari dehqonchilik faoliyatida unumdorlikni oshirishga xizmat qilgan. Xiva xonligi qishloq xo'jaligida ekinlarni almashlab ekish tizimi — ya'ni dalalarga navbatma-navbat turli ekinlarni ekish amaliyoti keng qo'llanilgan bo'lib, bu esa yerning unumdorligini saqlab qolishda va kasalliklarning oldini olishda muhim omil bo'lgan .

Paxtachilik. Paxta yetishtirish asosan Gurlan, Yangi Urganch, Xiva, Xonqa, Shohabozda rivojlangan. Paxta chigitidan yog' olinib, tolas mahalliy hunarmandlar



Date: 17th April-2026

ehtiyoji va tashqi bozorga chiqarilgan . XIX asr oxirida Rossiya ta'sirining kuchayishi natijasida paxta xonlikning asosiy qishloq xo'jaligi madaniyatiga aylanib, dehqonlar iqtisodiy qaramlik holatiga tushib qolgan .

Bog'dorchilik va polizchilik. Suv ko'p talab qilmaydigan (Hazorasp, Qo'ng'iroq, Toshhovuz, Ilonli, G'azovat, Mang'it va Gurlan) kunjut, no'xat, mosh, arpa va boshqa ekinlar ekilgan. Sabzavot – poliz ekinlari ko'plab yetishtirilgan. Xorazm qovunlari qo'shni hududlarda ham mashhur bo'lgan. Bog'dorchilik ham ancha taraqqiy etgan .

2.2. Chorvachilik

Chorvachilik asosan ko'chmanchi turkman va qozoq qabilalari tomonidan amalga oshirilgan, ular aholi ehtiyojini go'sht, sut, teri va jun bilan to'la ta'minlab turganlar. Xonlikning o'troq dehqonchilik tumanlarida chorvachilik yaxshi rivoj topmagan. Vohalarida yirik hayvonlar dehqonchilikda (yer haydash, hosilni yanchish, suv chiqarish va boshq.) foydalanish, go'sht va sut mahsuloti uchungina boqilgan .

Chorvador aholi xon xazinasiga zakot solig'i to'lagan. XIX asr boshlariga qadar bu soliq natura ko'rinishida, 40 bosh chorva hisobidan bir bosh undirilgan bo'lsa, keyingi davrlarda zakotni undirishga o'tilgan. Endilikda chorvadorlar yirik chorva uchun 40 bosh chorvadan 5 tillo, mayda chorvaning har 40 boshiga 10 abbos (10 abbos – 25 kumush tanga) miqdorida soliq to'laganlar .

Chorvachilikning rivojlanishi Xorazm vohasida nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari (go'sht, sut, yog') balki kiyim-kechak ishlab chiqarishda (jun, teri) ham muhim xomashyo manbai bo'lgan. Bu esa Xiva xonligi iqtisodiy hayotining ko'p tarmoqli va o'zaro bog'liq bo'lganligini yana bir bor isbotlaydi .

III. Sug'orish tizimi va infratuzilma

Xiva xonligi hududida sug'oriladigan yerlarning 93 foizi Janubiy Xorazmga to'g'ri kelgan bo'lib, ushbu mintaqada dehqonchilik mutlaqo sun'iy sug'orishga asoslangan . Sug'oriladigan yerlar tarmoq ko'rinishidagi ariq, kanal va daryolardan iborat murakkab tizim orqali suv bilan ta'minlangan.

Xonlikda kanallarni tozalash, yangilarini qazish uchun ilk bahorda o'z yeriga ega bo'lgan har bir xonadondan bir kishi jalb etilib, 15 kun ishlab berishi shart bo'lgan . Bu "qazuv" majburiyati dehqonlar uchun og'ir yuk bo'lgan.

Muhammad Rahimxon II davrida agrar sektorni yanada takomillashtirish va suv bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shohobod (Shovot), Polvon, Qilichniyozboy, Lavzon kabi qadimiy kanallar ta'mirlanib, suv o'tkazish imkoniyatlari kengaytirildi. Bundan tashqari, Sho'raxon va Bo'zyop kanallari rekonstruksiya qilindi, Lavzon kanalidan pastda esa Amudaryodan suv oluvchi 39 chaqirimli yangi kanal barpo etildi. Bu ishlar natijasida minglab tanob yerlar qayta o'zlashtirilib, eski yer maydonlari sug'orishga yaroqli holga keltirildi .

Said Muhammadxon (1860-1863) davrida Amudaryo o'ng sohilidagi bo'z yerlarga suv chiqarilib, yangi serhosil yerlar o'zlashtirildi. Bu holat vohaning demografik va iqtisodiy salohiyatini kengaytirish bilan bir qatorda, Xiva xonligining agrar strategiyasida yangi bosqichni boshlab berdi .



Date: 17th April-2026

IV. Soliq tizimi va majburiyatlar

4.1. Soliq turlari

Xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumining ajralmas qismi bo'lgan soliq va majburiy to'lovlar tizimi, ayniqsa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari - dehqonlar va chorvadorlar zimmasiga katta yuk bo'lib tushgan. Bu tizim murakkab va ko'p qatlamli bo'lib, soliq shakllari iqtisodiy faoliyatning har bir bosqichiga taalluqli bo'lgan .

Asosiy soliq turi "salg'ut" deb nomlangan bo'lib, bu yerga egalik va undan foydalanish evaziga undiriladigan soliq edi. Bunga qo'shimcha ravishda bir martalik to'lov - alg'ut, harbiy va davlat ehtiyojlari uchun yig'iladigan miltiq puli (qurol xaridiga), uloq tutuv (ot va tuyalarni safarbar etish), arava oluv (transport vositalarini jalb qilish), qo'nalg'a va so'ysun (amaldorlar joylashgan vaqtda ularni joylashtirish va mehmon qilish) kabi to'lovlar mavjud edi .

Bundan tashqari, ma'muriy apparatni ta'minlashga yo'naltirilgan chopar puli, tarozuyona (bozor muassasalari uchun to'lov), mirobona (suv ta'minoti xizmatlari uchun), darvozabon puli, mushrifona (hosil nazoratchisiga to'lov), qorovul puli, xazinachi haqi, afanak puli (ish majburiyatidan ozod etish to'lovi), chibik puli (ommaviy mehnat majburiyatidan ozodlik uchun to'lov) kabi 18 dan ortiq soliq va to'lovlar amal qilgan .

Xiva xonligida quyidagi soliqlar rasm bo'lgan :

1. Begor – ishlab berish solig'i ("hashar")
2. Qazuv – 12 kunlik majburiy xizmat
3. Olgut – bir yo'la olinadigan soliq
4. Solg'ut solig'i
5. Miltiq solig'i – qurol solig'i
6. Uloq tutuv – ot-uloq sayil puli
7. Qo'nalg'a-qo'noq solg'uti (mehmon)
8. So'ysun solig'i – jonliq so'yib osh berish
9. Chopar puli – xabar solig'i (pochta)
10. Taroz puli – tag-joy solig'i
11. Mirobona – mirob solig'i

4.2. Soliq islohotlari

Mazkur og'ir iqtisodiy holatni yumshatish va davlat boshqaruvini markazlashtirish yo'lida Xiva xoni Muhammad Rahimxon I tomonidan olib borilgan iqtisodiy islohotlar alohida ahamiyat kasb etadi. U soliq tizimini soddalashtirish va markazlashtirish maqsadida xiroj - mahsulot shaklidagi to'lovni pul ko'rinishidagi salg'ut bilan almashtirdi. Bu o'zgarish orqali fuqarolarning soliq majburiyatlari aniq va barqaror shaklga keltirildi .

Muhammad Rahimxon I tomonidan joriy etilgan soliq islohoti natijasida Xiva xonligining mulkdorlari iqtisodiy imkoniyatlariga qarab aniq tartibda uch guruhga ajratilgan. Birinchi guruhga 10 tanobdan ortiq yerga ega bo'lgan yirik yer egalari kiritilib, ular yer hajmidan qat'i nazar, davlatga yiliga 3 tillo (ya'ni 54 tanga) miqdorida qat'iy soliq to'laganlar. Ikkinchi guruhga 5-10 tanob yeri bo'lgan mulkdorlar mansub bo'lib, ularning yillik solig'i 2 tillo (36 tanga) etib belgilangan. Nihoyat, uchinchi guruhni tashkil etgan



Date: 17th April-2026

mayda yer egalari (5 tanobgacha yeri borlar) esa 1 tillo (18 tanga) miqdorida soliq to'laganlar .

Muhammad Rahimxon I davrida soliq yig'ish ishlarini markaziy hokimiyat zimmasiga olish, barcha tushum va chiqimlarni maxsus moliyaviy daftarlar orqali yuritish, xon tomonidan to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilish tizimi joriy etildi. Bu orqali mahalliy amaldorlarning soliqlardan o'zlashtirishini cheklash, davlat xazinasiga tushadigan daromadlarni oshirish hamda iqtisodiy tartibni mustahkamlash imkoniyati yaratildi .

V. Dehqonlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati

Turli xildagi jabr-zulmlar natijasida dehqonlarning kuchayib borayotgan noroziligi soliqlarni to'lashdan, majburiyatlarni bajarishdan ommaviy bosh tortish, yirik zamindorlar yerlarini egallab olish, soliq yig'uvchilar va xonlik ma'muriyatining boshqa namoyandalariga hujum qilish holatlarini ko'paytirdi. Dehqonlarning chiqishlari yer egalari amaldorlarining uylarini vayron qilish, qarz tilxatlarini yirtib tashlash va soliq yig'uvchilarni quvib yuborish bilan birga kechgan stixiyali isyonlar tarzida yuz berardi .

XIX asrning 80-yillarida Pitnak, Hazorasp, Yangi Urganch, Kohna Urganch tumanlarida dehqon uyushmalari vujudga kelib, kurash keskin tus ola boshladi. Xon ixtiyorida ularga qarshi kurash uchun kuchlar yetarli emasdi. Shu bois u Rossiya podshosi qo'shinlarini yordamga chaqirdi. Isyonlar bostirilib, dehqonlar harakati rahbarlari qatl etildi .

1902-yilda Matyoqub pishiq rahnamoligida Xonqa, Hazorasp, Bog'ot tumanlari dehqonlari qo'zg'olon ko'tarishdi. Xon yana Rossiya podshosi hukumati qo'shinlariga murojaat qildi. Qattiq jazo choralari ko'rilib, qo'zg'olon tormor etildi .

Xiva xonligida 1910—1911-yillar qurg'oqchilik va hosilsizlik yili bo'ldi. Xonlik aholisi ocharchilik girdobida qolgan edi. Yetkazilgan zararlarni qoplash uchun xon ma'murlari aholidan imkoni bo'lgan hamma narsani tortib ola boshladi. Soliqlar esa oshib bordi. Aholining ommaviy qashshoqlashuvi dehqonlarda norozilik tug'dirdi. 1910-1917-yillarda dehqonlar g'alayonlari keng tus oldi .

VI. Xulosa

Xiva xonligida iqtisodiy munosabatlar asosan agrar-dehqonchilik, chorvachilik hunarmandchilik va savdo aloqalariga tayanardi. Xonlikda yer davlat mulki hisoblanib, undan foydalanish uchun turli ijtimoiy qatlamlar - mulkdorlar, ijarachilar va chorvadorlar davlatga belgilangan miqdorda soliq to'lab turardilar .

Muhammad Rahimxon I davrida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida soliq tizimi soddalashtirildi: mahsulot solig'i o'rniga pul solig'i (salg'ut) joriy etildi va soliqlar markaziy hokimiyat tomonidan nazorat qilina boshlandi. Bu esa xazinaga tushumlar oshishiga, iqtisodiy boshqaruvning barqarorlashishiga olib keldi. Shuningdek, irrigatsiya inshootlarining qurilishi va ta'miri orqali yangi yerlar o'zlashtirildi, bu esa qishloq xo'jaligi salohiyatini oshirdi .

Dehqonchilikda bir qancha yutuqlarga erishildi ayniqsa donli va poliz ekinlari sohasida. Umuman olganda, Xiva xonligi iqtisodiyoti o'z davrida murakkab, ammo izchil rivojlanayotgan tizim bo'lgan.



Date: 17th April-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xiva xonligi (shayboniylar, eroniylar, qozoqlar va qo‘ng‘irot sulolasi) // Xorazmiy.uz
2. Sulaymonov B. Xiva xonligining agrar tizimi va soliqqa tortish siyosati (XVIII-XIX asrlar) // Oriental Renaissance, 2024
3. Xiva xonligi ichki va tashqi savdo munosabatlari // InLibrary.uz, 2025
4. O‘zbek xonliklarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot // Pedagog.uz, 2024
5. 1920-1924-yillarda Xorazm Xalq Sovet Respublikasida yer-suv islohotlari // CyberLeninka, 2026
6. Xiva xonligida yer-suv solig‘i // Xorazmiy.uz
7. Soliq nazariyasi va tarixi // ScienceWeb.uz
8. Xiva xonligi: tashkilot, siyosiy vaziyat va davlat boshqaruv tizimi // InLibrary.uz, 2024
9. Xiva xoni Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti // InLibrary.uz, 2024
10. Xiva xonligining asosiy savdo markazlari va tashqi savdo // UniversalPublishings.com

